



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



No8(2)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 528 sahifa,
12-avgust, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Woosyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Woosyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oğlu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

The Role of English Collocations, Idiomatic Expressions, and Phraseological Units in Developing Communicative Competence in Higher Education	10
<i>Alimov Jamshid Ravshanovich</i>	
Milliy xoslangan lisoniy birliklarni teglash tamoyillari	16
<i>Yorkulov Zafarjon Bakirovich</i>	
Oila a'zolari o'rtasidagi o'zaro tushunishning shaxs kognitiv rivojlanishiga ta'sirining psixologik xususiyatlari	20
<i>Vaydulla Madinabonu Muxtasam qizi</i>	
O'qituvchilar darslarni qanday qiziqarli tashkil etishlari mumkin?	26
<i>Dilnura Rustamovna Xamrayeva</i>	
Tarbiya texnologiyasi – talabalarda ilmiy va sinergetik dunyoqarashni shakllantirish omili sifatida	33
<i>Mamadaliyev Kamolidin Rahmatullayevich</i>	
Maktab direktor maslahatchilarida strategik boshqaruv tafakkurini rivojlantirishning psixologik omillari	40
<i>Rahmatova Nasiba Sobirovna</i>	
Umumta'lim maktablarida harbiy-vatanparvarlik tarbiyasini sinfdan tashqari faoliyat orqali takomillashtirishning pedagogik-metodik tizimi	46
<i>Urinbayeva Dilfuza Abdumannobovna</i>	
Integrativ ta'lim texnologiyalari asosida bo'lajak geografiya o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish	50
<i>Xoldavlatova Gavhar Normaxmatovna</i>	
Klaster asosida TVET tizimida pedagogik innovatsiyalar	55
<i>Sobir Azizov</i>	
Muammoli ta'lim texnologiyasi orqali talabalarining kreativ fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish: "muammo" divergent–konvergent o'quv sikli	57
<i>Djumabayev G'ulomjon Xalillayevich, Yusupov Muxtorbek Roximovich</i>	
Oliy ta'lim muassasalari jismoniy tarbiya darslarida regbi elementlarini o'rgatishning tashkiliy-metodik asoslar	62
<i>E. E. Jumayev</i>	
Autentik materiallar asosida bo'lajak nemis tili o'qituvchilarining til ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasining eksperimental samaradorligi	65
<i>Jumayeva Gulxan Amrullayevna</i>	
Aleksandr Nil pedagogik ta'limotida shaxs erkinligini rivojlantirish mexanizmlari: ingliz filologiyasi talabalari misolida	71
<i>Atamirzayev Bahrom Bahodir o'g'li</i>	
TPACK modeli asosida ingliz tilida kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishning adaptiv metodik tizimi	75
<i>Omonova Maftuna Shermatovna</i>	
Multimodal vizual tayanchlar va flashcard asosidagi topshiriqlar orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarining ingliz tilidagi og'zaki nutq ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasi	82
<i>Sevara Alimurodova, Ayubova Saïda</i>	
Raqamlashtirish jarayonida elektron ta'lim resurslarini yaratishning metodik asoslarini takomillashtirish	88
<i>Nurmaxonov Kayrat Erpayizovich</i>	
Modulli ta'lim texnologiyalari orqali o'quvchilarda mustaqil fikrlashni shakllantirishning pedagogik asoslari	95
<i>Poyonova Fazilat Olimovna</i>	
Individual ta'lim sharoitida talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlash samaradorligini pedagogik tajriba-sinov va matematik-statistik tahlil asosida baholash	100
<i>Gulbaxor Abdullayevna Gaynazarova</i>	



Oliy ta'lim muassasalarida raqamli menejment tizimlarini joriy etish muammolari va ularni bartaraf etishning samarali yo'llari	106
Matnazarov Hurmatbek Egamberganovich	
Umumiy o'rta ta'lim maktablarida ta'lim sifatini boshqarishda sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari	110
Sodiqov Rafikjon Turobjon o'g'li	
Bo'lajak tarbiyachilarning liderlik-boshqaruv kompetentligini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari ...	114
To'xtayeva Dilrabo Nematovna	
Inklyuziv ta'lim: mohiyati, tamoyillari	119
Choriyeva Muxlisa Jumamurodovna	
The Role of Neuromuscular Dentistry in Dental Practice	123
Turayev Alimjan	
Orthodontics' Digital Transformation (Literature Review)	128
Khusanbaeva Jasmin Shavkatovna, Xazratov A. I.	
O'zbekiston SSRda ta'lim islohotlari davrida pedagogika bilim yurtlari faoliyatida o'qituvchilarni tayyorlash jarayonlari va amaliy muammolar	136
Mamatkulova Maxfuza Kozimovna	
Application of Mechanotherapy Techniques in Oral and Craniofacial Surgical Methodologies (Literature Review)	140
Marufova Farangiz Gayratovna	
Theoretical Foundations for Developing Communicative Competence of Future Doctors	147
Nasimova Shahnoza Ziyodullayevna	
Формирование функциональной грамотности и "гибких навыков" (Soft Skills) у учащихся начальных классов в контексте реализации национальной учебной программы Узбекистана	152
Ю. С. Тажиева	
Talabalarda mustaqil ta'lim olish faoliyatini rivojlantirish metodlari	156
Jabborov Toxirjon Maqsudali o'g'li	
Ingliz va qoraqalpoq tillaridagi onim komponentli frazeologizmlarning lingvomadaniy xususiyatlari	160
Koyshekenova Tatyana Kenesariyevna	
Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining ijodiy-metodik kompetentligini rivojlantirish texnologiyasi	164
Qo'shaqov Farrux Furqat o'g'li	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning kognitiv faollikni oshirishning pedagogik usullari	169
Xoldarova F. M.	
Ingliz tili darslarida ixtisoslashtirilgan maktab o'quvchilarining kreativ kompetentligini rivojlantirish metodikasi	172
Madaminova Muzifa Shukurullo qizi	
Sport ta'limi yo'nalishidagi o'quvchilarining generativ sun'iy intellekt kompetensiyasini baholash mezonlari va indikatorlarini takomillashtirish	178
Nematova Rushana Nemat qizi	
Inklyuziv ta'lim sharoitida koxlear implantli bolalarning eshituv-nutqiy faoliyatini pedagogik tashkil etish metodikasi	184
Mirzayeva Umida Inamovna	
Umumiy o'rta ta'lim muassasasida ijtimoiy-madaniy muhitni rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik zaruriyati	188
Malikova Dilrabaxon	
Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining kasbiy-subyektiv pozitsiyasini rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari	194
Temirova Shoxsanam Komilovna	
O'zbek tilidagi lingvomadaniy kollokatsiyalarning assotsiativ-semantik xususiyatlari	201
Boymirova Dilshoda Oblayor qizi	
Методы развития компетенций будущих учителей начальной школы в области создания текстов	208
Хаитова Нодира Бафроевна	

Inklyuziv maktabgacha ta'limda bolalarning ijtimoiy-psixologik moslashuvida madaniy-tarixiy va ekologik yondashuvlar integratsiyasi	216
Mengliyeva Gavhar Ibrohim qizi	
Maktabgacha ta'lim jarayonida induktiv metodlardan foydalanishning xorijiy tajribasi	220
Mirazimova Muxabbat Normatovna	
Virtual muzeylar orqali tarixiy tafakkurni rivojlantirishning pedagogik modeli	225
To'ranazarova Muxlisaxon Davlatjon qizi	
Қорақалпоқ, туркман ва инглиз эртақларида образли нутқнинг миллий моделлари: фразеологизм, ранг ва маиший тимсоллар	230
Жепбарова Саят Курбанмиратовна, Жаумитбаева Перийзат Караматдиновна	
Statistical Analysis of Experimental Work and Evaluation of Educational Effectiveness in Teaching Bioethics	233
Salimova Malika Rashidbekovna	
Talabalarda innovatsion fikrlashni rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari	240
Axatova Sabina Qo'shmurod qizi	
Talabalarda sport kompetensiyasini rivojlantirishga ta'sir etuvchi pedagogik omillar	247
Ismatov Feruz Mamarasulovich	
Bo'lajak tarbiya fani o'qituvchilarini integrativ o'qitish zarurati va o'ziga xos xususiyatlari	254
Fayzullayeva Xolida Axmadjon qizi	
Ingliz tilini o'rganishda motivatsiya va o'quvchilarni rag'batlantirish usullarining ahamiyati	258
Sirojov Daler Kironboyevich	
Mikrokredit tashkilotlarini vujudga kelishi va bekor bo'lishining huquqiy asoslari	263
Madumarov Talantbek Tolibjonovich, Qalandarova Mubinabonu Fayziddin qizi	
Oliy ta'lim tizimida ta'lim-tarbiya jarayonlarini aksiologik modernizatsiyalashning psixologik mexanizmlari... ..	268
Taylanova Sh. Z., Turayeva Dilnoza Niyatullo qizi	
A Methodology for Using Digital Educational Technologies in Preparing Students to Teach Subject-Specific Disciplines in English in Non-Philological Fields of Study	274
Mirzayeva Khilolakhon Bakhromali kizi	
Deviant xulqli o'smirlarda konfliktli xulq shakllanishida ota-ona-farzand munosabatlarining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari	281
Otamirzayev Muzaffar Bahodir o'g'li	
Biologiya fanidan auditoriyadan tashqari mashg'ulotlarni tashkil etishning innovatsion metodlari va ularning kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishdagi ahamiyati.....	287
Xalilova Maqsad Ravshanovna	
Leading Schools for Gifted Students: Contextual Demands on the Principal and the Case for Creative Competence	293
Zarina I. Ganiyeva	
Aholi o'rtasida gipodinamiyani (kamharakatlikni) bartaraf etishda o'z-o'zini nazorat qilish usullari	297
Sharipova Faridaxon Akmaljon qizi	
Lobachevskiy geometriyasi: noevklid geometriyaning nazariy asoslari, geometrik xususiyatlari va ta'limdagi ahamiyati.....	301
Namozov Diyorbek Baxtiyor o'g'li	
Adabiyot ta'limi jarayonida nutqiy kompetensiyani shakllantirishning pedagogik-psixologik asoslari	305
Sulaymonova Nafisa Sattorovna	
Ritmik she'r va harakatli mashqlar yordamida 1-sinf o'quvchilarining diqqatini jamlash	311
Yadgarova Iroda Ikromovna	
Mehrli maktab o'quvchilarining ijtimoiy moslashuvchanlik ko'nikmalarini rivojlantirishning konseptual modeli.....	314
Xoliqulova Dilnoza Sheraliyevna	
Bo'lajak shifokorlarda kasbiy-kommunikativ motivatsiyani xalqaro miqyosda rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari	318
Qoravoyeva Shoira Zafarjon qizi	



Pedagogik ta'limda media savodxonlikni rivojlantirishning zamonaviy yondashuvlari	322
<i>Gulmonova Guli Anvar qizi</i>	
Pedagogik diagnostika vositalari asosida bo'lajak o'qituvchilarning individuallashtirilgan ta'limni loyihalash ko'nikmalarini rivojlantirish samaradorligi	327
<i>Yuldashev Xusniddin Abdullayevich</i>	
Inklyuziv ta'limga muhtoj bolalarni pedagogik va psixologik qo'llab-quvvatlash	333
<i>Bozorova Muxlisa</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotida metodik faoliyat turlari.....	337
<i>Qarshibayeva Dilduza Xidirbayevna</i>	
Umumiy o'rta ta'limda o'quvchilar individual rivojlanishini baholash yo'nalishlari.....	341
<i>Alimov Azim Anvarovich</i>	
O'quvchilarning mustaqil faoliyatini tashkil etishda motivatsiya va o'zini o'zi boshqarishning psixologik roli	347
<i>Burtshova Aliya Burxonovna</i>	
Talabalarning tanqidiy fikrlashini rivojlantirishda pedagogik metodlarning integrativ imkoniyatlari.....	354
<i>Nazarova Vazira Bahron qizi</i>	
Tasviriy san'at ta'limida inklyuziv yondashuv va raqamli ta'lim muhitining integratsiyasi	359
<i>Shodmonova Munisa Furkatovna</i>	
Uzoq muddat davolanishga muhtoj bo'lgan o'quvchilarning ijtimoiy moslashuvchanlik ko'nikmalarini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari	365
<i>Xoliqulova Dilnoza Sheraliyevna</i>	
Jamoat transporti haydovchilarining psixoemotsional barqarorligini shakllantirishning nazariy-psixologik asoslari.....	369
<i>Ruzimatova Gulbaxor Adiljanovna</i>	
Игровые технологии как средство развития речевой активности детей с тяжёлыми нарушениями речи.....	375
<i>Шакирова Ситора Абдугануровна</i>	
Qo'l to'pi bilan shug'ullanuvchi talabalarda tezkorlik va chaqqonlik sifatlarini rivojlantirishning samarali usullari.....	380
<i>Jo'rayev Nodirbek Nutfillo o'g'li</i>	
Ценностно-смысловой потенциал поэзии Анны Ахматовой в формировании языковой личности и духовно-нравственном становлении учащихся: методический аспект	385
<i>Жабборовна Гулчехра Жобириковна</i>	
Raqamli ta'lim sharoitida geoaxborot tizimlarini o'qitishning zamonaviy holati va rivojlanish tendensiyalari...	391
<i>Iskandarov Bayimbet Sobir o'g'li</i>	
O'zgarishlarni boshqarish ko'nikmalarini innovatsion menejment asosida rivojlantirish yo'nalishlari	395
<i>Abdullayev Amirulla Xazratovich</i>	
Ona tili va o'qish savodxonligi darslarida hayotiy ko'nikmalarni rivojlantirishga yo'naltirilgan topshiriqlar tizimini takomillashtirish	399
<i>Boymurodova Nodirabegim Bahodir qizi</i>	
O'smirlarning ijtimoiylashuv jarayonining mazmuni va ijtimoiy-pedagogik xususiyatlari.....	404
<i>Nishanbayeva Odina Xikmatillayevna</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining tanqidiy fikrlashini rivojlantirishda kognitiv strategiyalardan foydalanish metodikasi	409
<i>Sharopova Zarnigor Tolib qizi</i>	
Assessment for Learning and Assessment of Learning: Formative and Summative Approaches in Foreign Language Education in Uzbekistan.....	415
<i>Ramazonova Feruzaxon Akbarovna</i>	
Aqli zaif boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'quv-amaliy faoliyatini tashkil etishda sensor integratsiyadan foydalanish metodikasini takomillashtirish.....	420
<i>Tajibayeva Shaxnoza Abdumuxtorovna</i>	

Umumta'lim muassasalari rahbar kadrlarning raqobatbardoshligini baholash va samarali boshqarishning qiyosiy tahlili	425
Uzakbayeva Raxima Xojabayevna	
Nemis tilida so'zlashuvchi davlatlar va nemis adabiy tili tarixi	430
Adham Berdimurodov Musurmonovich	
Xorijiy andragogik yondashuvlarni kasbiy ta'limga integratsiya qilishning pedagogik shart-sharoitlari	434
Yusupov Ulug'bek Kamalovich	
The Power of Intercultural Competence in Global Communication.....	439
Serdaliev Baxitli Xaydarovna	
Bo'lajak tarbiyachilarning badiiy tafakkurini xalq og'zaki ijodi asosida rivojlantirish metodikasi	443
Matrizayeva To'maris Jumamirat qizi	
Raqamli ta'lim transformatsiyalashu-vining pedagogik mazmuni va zamonaviy tendensiyalari.....	449
Turdaliyeva Nurjahan Abdunosir qizi	
Pedagogik ta'lim tizimida raqamlashtirish va sun'iy intellekt texnologiyalarining o'rni.....	457
Boymirzayeva Shanoza Olimjon qizi	
The Effectiveness of a Synthetic Phonics Programme in Teaching Word Reading, Spelling and Reading Comprehension: a Critical Review and EFL Pedagogical Implications.....	465
Nishonova Zuxra Voxidjon qizi	
Talabalarda informatsion-analitik kompetentlikni rivojlantirishning konseptual-metodologik asoslari: tizimli, kompetensiyaviy va faoliyatli yondashuvlar.....	471
Baydjanov Bekzod Xaitboyevich	
Biologiya ta'limida o'quvchilarning bilim va kompetensiyalarini baholashni pedagogik kvalimetriya va zamonaviy psixometrik yondashuvlar asosida takomillashtirish.....	476
Boyxonov Islomjon Abduqaxxor o'g'li	
Oiladagi nizolarni hal etishda mediatorlik faoliyatining ahamiyati.....	483
Ibaydullayeva Umida Rustamjonovna	
Xalq pedagogikasiga asoslangan kompetensiyaviy yondashuvning metodologik asoslari	487
Maqsudov Ulug'bek Qurbonovich	
Kompyuter tarmoqlari mavzusini o'qitishda muammoli ta'lim texnologiyalaridan foydalanishning metodik imkoniyatlari	493
Po'lotova Sevinchoy Arslon qizi	
Bo'lajak filologlarni tayyorlashda art-menejment asosida pedagogik boshqaruv strategiyalarini takomillashtirish texnologiyasi	499
Qo'chqarova Feruza Maxamatqosimovna	
Kasbiy sifatlarni rivojlantirishda qadriyat yo'naltirilganlik va motivatsion soha o'zaro bog'liqligi.....	503
Qo'shmuratov Bekzod Abduraimovich	
Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining ijodiy tafakkurini rivojlantirishning innovatsion-pedagogik tizimi	509
Rustamova Manzura Mirkamalovna	
"Kelajak soatlari" darslarida yuqori sinf o'quvchilarining o'zini-o'zi tarbiyalash (self-education) kompetensiyasini rivojlantirish metodikasi.....	517
Saxoddinova Muhayyo Eshmamat qizi	
Generativ sun'iy intellekt vositalari asosida bo'lajak musiqa o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini rivojlantirishning metodik imkoniyatlari.....	523
Teshaboyev Ilxomjon Inomjon o'g'li	



GENERATIV SUN'IY INTELLEKT VOSITALARI ASOSIDA BO'LAJAK MUSIQA O'QITUVCHILARINING KASBIY TAYYORGARLIGINI RIVOJLANTIRISHNING METODIK IMKONIYATLARI

Teshaboyev Ilxomjon Inomjon o'g'li
Andijon davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada generativ sun'iy intellekt vositalari asosida bo'lajak musiqa o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini rivojlantirishning metodik imkoniyatlari ilmiy-pedagogik jihatdan tahlil qilingan. Generativ sun'iy intellekt texnologiyalarini musiqa ta'limi jarayoniga integratsiya qilishning didaktik imkoniyatlari hamda ularning bo'lajak musiqa o'qituvchilarida kasbiy, pedagogik, raqamli va ijodiy kompetensiyalarni shakllantirishdagi ahamiyati ochib berilgan. Shuningdek, generativ sun'iy intellekt vositalaridan musiqiy-pedagogik faoliyatda maqsadli va samarali foydalanishga yo'naltirilgan metodologik yondashuvlar asoslangan hamda ularni ta'lim jarayoniga tatbiq etishning istiqbolli yo'nalishlari belgilangan.

Kalit so'zlar: generativ sun'iy intellekt, musiqa ta'limi, bo'lajak musiqa o'qituvchisi, kasbiy tayyorgarlik, kasbiy kompetentlik, pedagogik kompetensiya, raqamli kompetensiya, ijodiy kompetensiya, metodologik yondashuv, raqamli pedagogika, musiqiy-pedagogik faoliyat.

Abstract: This article provides a scientific and pedagogical analysis of the methodological possibilities for developing the professional preparation of prospective music teachers through the use of generative artificial intelligence tools. It examines the didactic potential of integrating generative artificial intelligence technologies into the music education process and highlights their significance in developing the professional, pedagogical, digital, and creative competencies of prospective music teachers. In addition, methodological approaches aimed at the purposeful and effective use of generative artificial intelligence tools in music-pedagogical activities are substantiated, and promising directions for their implementation in the educational process are identified.

Key words: generative artificial intelligence, music education, prospective music teacher, professional preparation, professional competence, pedagogical competence, digital competence, creative competence, methodological approach, digital pedagogy, music-pedagogical activity.

Аннотация: В статье с научно-педагогических позиций проанализированы методические возможности развития профессиональной подготовки будущих учителей музыки на основе использования средств генеративного искусственного интеллекта. Раскрыты дидактические возможности интеграции технологий генеративного искусственного интеллекта в процесс музыкального образования, а также их значение в формировании профессиональных, педагогических, цифровых и творческих компетенций будущих учителей музыки. Кроме того, обоснованы методологические подходы, направленные на целенаправленное и эффективное использование средств генеративного искусственного интеллекта в музыкально-педагогической деятельности, и определены перспективные направления их внедрения в образовательный процесс.

Ключевые слова: генеративный искусственный интеллект, музыкальное образование, будущий учитель музыки, профессиональная подготовка, профессиональная компетентность, педагогическая компетентность, цифровая компетентность, творческая компетентность, методологический подход, цифровая педагогика, музыкально-педагогическая деятельность.

KIRISH

Zamonaviy jamiyatda raqamli texnologiyalar, katta hajmdagi ma'lumotlar, mashinaviy o'qitish va generativ sun'iy intellekt tizimlarining rivojlanishi oliy ta'lim mazmuni hamda bo'lajak mutaxassislarni tayyorlashga qo'yiladigan talablarni tubdan o'zgartirmoqda.



O'zbekistonda sun'iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilgacha rivojlantirish, texnik infratuzilmani kengaytirish va kadrlar salohiyatini oshirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan. Bu holat pedagogika oliy ta'lim muassasalarida nafaqat texnik soha mutaxassislarini, balki barcha fanlar, jumladan, musiqa ta'limi yo'nalishidagi pedagoglarni ham sun'iy intellektdan kasbiy faoliyatda maqsadli foydalanishga tayyorlash zaruratini yuzaga keltiradi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Generativ sun'iy intellekt matn, tasvir, audio, video, nota yozuvi va boshqa raqamli mahsulotlarni foydalanuvchi ko'rsatmasi asosida yaratish yoki takomillashtirish imkonini beruvchi texnologiyalar majmuasidir.

J. Goodfellow va hammualliflari tomonidan ishlab chiqilgan Generative Adversarial Networks (GAN) modeli generativ sun'iy intellektning rivojlanishida muhim bosqich bo'ldi.

Diederik P. Kingma va Max Welling tomonidan ishlab chiqilgan Variational Autoencoder (VAE) modeli ham generativ sun'iy intellektning muhim nazariy asoslaridan biridir. VAE yondashuvi mavjud ma'lumotlarning yashirin xususiyatlarini o'rganish va ular asosida yangi namunalarni yaratish imkonini beradi.

Ashish Vaswani va hammualliflar tomonidan taklif etilgan Transformer arxitekturasida esa generativ sun'iy intellektning matn yaratish imkoniyatlarini keskin kengaytirdi.

Tom B. Brown va hammualliflarning GPT-3 modeliga bag'ishlangan tadqiqotlari katta til modellarining matn generatsiyasidagi imkoniyatlarini ko'rsatib berdi.

Ushbu tadqiqot generativ AI vositalarining matn yaratish, savollarga javob berish, umumlashtirish, tarjima qilish va turli janrlardagi kontentni shakllantirish imkoniyatlarini rivojlantirishda muhim bosqich bo'ldi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Musiqa ta'limi boshqa pedagogik yo'nalishlardan mazmunining estetik, hissiy, ijodiy va ijrochilik xususiyatlari bilan ajralib turadi. Musiqa o'qituvchisi musiqiy-nazariy bilimlarni yetkazish bilan cheklanmaydi. U ta'lim oluvchilarning musiqiy idroki, ijodiy tafakkuri, estetik didi, ijrochilik ko'nikmalari, milliy va umuminsoniy qadriyatlariga munosabatini rivojlantiradi. Shu sababli generativ sun'iy intellektni musiqa ta'limiga joriy etish texnologik vositani o'zlashtirishdan ko'ra kengroq mazmunga ega bo'lib, pedagogik maqsad, musiqiy mazmun, ijodiy faoliyat va axloqiy mas'uliyatning integratsiyasini taqozo etadi. Raqamli vositalar musiqa yaratish, ijro etish va musiqani idrok qilish jarayonlarini pedagogik jihatdan qo'llab-quvvatlashi mumkin, biroq ularning samaradorligi texnologiyaning o'zidan emas, balki asoslangan didaktik loyihalashdan kelib chiqadi.

Mazkur sohada muayyan ilmiy qarama-qarshilik mavjud. Bir tomondan, generativ sun'iy intellekt vositalari musiqa darslarini loyihalash, o'quv topshiriqlarini yaratish, repertuar tanlash, musiqiy asarlarni tahlil qilish, qisqa kompozitsiyalar va aranjirovkalar yaratish hamda talabalar refleksiyasini tashkil etish imkoniyatlariga ega. Ikkinchi tomondan, bo'lajak musiqa o'qituvchilarini ushbu vositalardan pedagogik, metodik, ijodiy, tanqidiy va axloqiy jihatdan asoslangan holda foydalanishga tayyorlashning nazariy-metodologik asoslari yetarlicha tizimlashtirilmagan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Generativ sun'iy intellekt vositalari asosida bo'lajak musiqa o'qituvchilarining pedagogik tayyorgarligini rivojlantirishga xizmat qiluvchi nazariy tushunchalar, metodologik yondashuvlar, pedagogik tamoyillar va tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlarni aniqlash hamda tizimlashtirishdan iborat.

Bo'lajak musiqa o'qituvchisining pedagogik tayyorgarligi

Pedagogik tayyorgarlik o'qituvchining kasbiy faoliyatni amalga oshirishga tayyorligini belgilaydigan bilim, ko'nikma, kompetensiya, qadriyat, motiv va shaxsiy sifatlarning integrativ tizimidir. Bo'lajak musiqa o'qituvchisi faoliyatida bu tayyorgarlik pedagogik bilimlar bilan bir qatorda musiqiy-nazariy savodxonlik, ijrochilik mahorati, metodik loyihalash, ijodiy faoliyatni tashkil qilish, raqamli resurslardan foydalanish va ta'lim oluvchilarning musiqiy-estetik rivojlanishini baholash qobiliyatlarini qamrab oladi.

Bizning fikrimizcha, bo'lajak musiqa o'qituvchisining pedagogik tayyorgarligi - musiqiy-pedagogik faoliyatning maqsad va vazifalarini anglash, uning mazmunini ilmiy asosda loyihalash, ta'lim oluvchilarning individual va ijodiy xususiyatlarini hisobga olgan holda dars jarayonini tashkil etish, an'anaviy hamda raqamli vositalarni pedagogik vaziyatga muvofiq qo'llash, erishilgan natijalarni tanqidiy baholash va kasbiy faoliyatini refleksiv takomillashtirish imkonini beruvchi motivlar, bilimlar, amaliy ko'nikmalar, qadriyatlar va kasbiy sifatlarning integrativ majmuasidir.



Generativ sun'iy intellektning musiqa ta'limidagi imkoniyatlari

Generativ sun'iy intellekt bo'lajak musiqa o'qituvchisining pedagogik faoliyatini bir necha yo'nalishda qo'llab-quvvatlaydi. Avvalo, u musiqa darsining maqsadi, bosqichlari, metodlari va baholash mezonlarini shakllantirishda g'oyalar manbai bo'lishi mumkin. Ikkinchidan, ta'lim oluvchilarning yoshi, bilim darajasi va musiqiy qiziqishlariga mos topshiriqlar yaratish orqali individuallashtirilgan ta'limni ta'minlashga yordam beradi. Uchinchidan, musiqiy asarning janri, shakli, ifoda vositalari va tarixiy-madaniy mazmunini tahlil qilish uchun dastlabki analitik material tayyorlaydi.

Generativ vositalar kompozitsiya va aranjirovka jarayonida musiqiy g'oya, ritmik model, melodik yo'nalish yoki uslubiy variantlar taklif qilishi mumkin. Bunda yakuniy badiiy qaror bo'lajak musiqa o'qituvchisi yoki talaba tomonidan qabul qilinishi lozim. Sun'iy intellekt tomonidan yaratilgan mahsulot musiqiy ijodning tayyor natijasi emas, balki tahlil, muhokama, qayta ishlash va yangi g'oyalarni shakllantirish uchun didaktik material vazifasini bajarishi maqsadga muvofiq.

Raqamli va elektroakustik kompozitsiya bilan bog'liq loyihalar bo'lajak musiqa o'qituvchilarining ijodiy faolligi, musiqiy tajriba o'tkazish qobiliyati va raqamli kompetensiyasini rivojlantirishga xizmat qilishi aniqlangan. Loyihaga asoslangan musiqa texnologiyalari kurslari texnologik, pedagogik va musiqiy mazmunni birlashtirish imkonini beradi.

2026-yilda Avstraliya va Italiyadagi musiqa o'qituvchilari ishtirokida o'tkazilgan sifat tadqiqotida sun'iy intellekt dars rejalashtirish, baholash mezonlarini ishlab chiqish, mazmunni umumlashtirish, nota dasturlari bilan ishlash va ijodiy g'oyalarni rivojlantirishda yordamchi vosita sifatida baholangan. Shu bilan birga, o'qituvchilar mualliflik, natijalar ishonchiligi, estetik bir xillashuv va ta'lim oluvchilar mustaqilligining susayishi bilan bog'liq xavotirlarni bildirgan. Ushbu natijalar generativ sun'iy intellektni musiqiy ijodni almashtiruvchi emas, balki insonning musiqiy tafakkuri va pedagogik qarorlarini qo'llab-quvvatlovchi "hamkor vosita" sifatida qo'llash zarurligini tasdiqlaydi.

Generativ sun'iy intellekt ta'lim uchun katta imkoniyatlarga ega bo'lsa-da, uning natijalari doimo ishonchli yoki pedagogik jihatdan maqbul bo'lavermaydi. Musiqiy asarlar, bastakorlar, tarixiy voqealar yoki nazariy tushunchalar haqidagi noto'g'ri ma'lumotlar talabalarda xato tasavvurlarni shakllantirishi mumkin. Shu sababli har bir generativ natija darslik, nota manbasi, ilmiy adabiyot yoki mutaxassis xulosasi bilan tekshirilishi kerak.

Talabaning tayyor mahsulotga ortiqcha tayanishi mustaqil fikrlash, eshitish, improvizatsiya, kompozitsiya va musiqiy tahlil ko'nikmalarining rivojlanishini cheklashi mumkin. Buni oldini olish uchun baholashda faqat yakuniy mahsulot emas, balki g'oyaning shakllanishi, promptlar tarixi, tahrir jarayoni, talabaning og'zaki asoslanishi, jonli ijrosi va refleksiyasi ham hisobga olinishi lozim.

Mualliflik huquqi va akademik halollik masalalari alohida ahamiyatga ega. Talaba sun'iy intellektidan qaysi bosqichda va qanday maqsadda foydalanganini ochiq ko'rsatishi, generativ mahsulotni shaxsiy ijod namunasi sifatida taqdim etmasligi hamda mavjud musiqa asarlari uslubini noqonuniy o'zlashtirishdan saqlanishi zarur. Shuningdek, milliy musiqa an'analari va estetik xususiyatlarning algoritmik qoliplar ta'sirida bir xillashib ketishiga yo'l qo'ymaslik kerak. UNESCO generativ sun'iy intellektni joriy etishda madaniy xilma-xillik, inson ijodkorligi, ma'lumotlar maxfiyligi va ta'lim oluvchining mustaqil subyekt sifatidagi mavqeyini himoya qilishni tavsiya etadi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi bo'lajak musiqa o'qituvchisining pedagogik tayyorgarligi generativ sun'iy intellekt sharoitida musiqiy-pedagogik faoliyatni loyihalash, amalga oshirish, tanqidiy baholash va refleksiv takomillashtirishga xizmat qiluvchi motivatsion, kognitiv, metodik, ijodiy, raqamli, refleksiv hamda axloqiy-huquqiy komponentlarning integrativ majmuasi sifatida aniqlashtirilgani bilan belgilanadi.

Shuningdek, mazkur tayyorgarlikni rivojlantirishga xizmat qiluvchi tizimli, kompetensiyaviy, faoliyatga yo'naltirilgan, shaxsga yo'naltirilgan, integrativ, raqamli-didaktik, ijodiy-refleksiv va aksiologik yondashuvlar o'zaro aloqadorlikda tizimlashtirildi. Generativ sun'iy intellekt vositalarini musiqa ta'limiga integratsiya qilishning pedagogik tamoyillari, zarur shart-sharoitlari, didaktik imkoniyatlari va xavflarini boshqarish yo'nalishlari aniqlashtirildi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi xulosalarga kelindi: Generativ sun'iy intellekt bo'lajak musiqa o'qituvchilarining dars loyihalash, metodik material yaratish, musiqiy tahlil, kompozitsiya, aranjirovka va refleksiya faoliyatini qo'llab-quvvatlash imkoniyatiga ega. Bo'lajak musiqa o'qituvchisining pedagogik tayyorgarligi faqat pedagogik bilim yoki texnik ko'nikma bilan cheklanmaydigan, musiqiy, metodik, ijodiy, raqamli, refleksiv va axloqiy sifatlarni birlashtiruvchi integrativ tuzilma hisoblanadi. Generativ sun'iy intellektni musiqa ta'limiga samarali integratsiya qilish tizimli, kompetensiyaviy, faoliyatga yo'naltirilgan, shaxsga yo'naltirilgan, integrativ, raqamli-didaktik, ijodiy-refleksiv va aksiologik yondashuvlar birligiga tayanishi lozim.



Sun'iy intellekt pedagog yoki musiqiy ijodkorni almashtiruvchi subyekt emas, balki inson tomonidan boshqariladigan, tekshiriladigan va pedagogik maqsadga bo'ysundiriladigan yordamchi vosita sifatida qo'llanishi kerak. Generativ mahsulotlarni tanqidiy tekshirish, tahrirlash, musiqiy-estetik jihatdan baholash va mualliflik pozitsiyasi bilan qayta ishlash bo'lajak musiqa o'qituvchisining yangi kasbiy ko'nikmalaridan biri hisoblanadi. Akademik halollik, mualliflik huquqi, ma'lumotlar xavfsizligi, milliy-madaniy qadriyatlar va inson ijodkorligining ustuvorligi generativ sun'iy intellektdan foydalanishning majburiy pedagogik shartlari bo'lishi kerak.

Aniqlangan nazariy-metodologik asoslar kelgusida bo'lajak musiqa o'qituvchilarining pedagogik tayyorligini rivojlantirish modeli, bosqichli metodikasi, mezonlari, ko'rsatkichlari va diagnostik vositalarini ishlab chiqish uchun ilmiy asos vazifasini bajaradi. Musiqa ta'limi bakalavriat dasturlariga "Musiqa ta'limida generativ sun'iy intellekt" mavzusidagi maxsus modulni kiritish, talabalarga sun'iy intellekt natijalarini tekshirish va tahrirlashni o'rgatish, ijodiy loyiha hamda pedagogik amaliyotlarda generativ vositalardan foydalanish bo'yicha aniq mezonlarni belgilash tavsiya etiladi. Shuningdek, sun'iy intellektdan foydalanish holatini deklaratsiya qilish, mualliflik huquqiga rioya qilish va talabani shaxsiy ijodiy hissasini baholashga qaratilgan akademik halollik qoidalarini ishlab chiqish maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Bauer, W. I. (2020). Music learning today: Digital pedagogy for creating, performing, and responding to music (2nd ed.). Oxford University Press.
2. Biasutti, M., Merrick, B., & Joseph, D. (2026). Music teachers' perspectives on artificial intelligence tools: Opportunities and challenges. *Music Education Research*. <https://doi.org/10.1080/14613808.2026.2672358>
3. Chan, C. K. Y., & Hu, W. (2023). Students' voices on generative AI: Perceptions, benefits, and challenges in higher education. *International Journal of Educational Technology in Higher Education*, 20, Article 43. <https://doi.org/10.1186/s41239-023-00411-8>
4. Kasneci, E., Seßler, K., Küchemann, S., Bannert, M., Dementieva, D., Fischer, F., et al. (2023). ChatGPT for good? On opportunities and challenges of large language models for education. *Learning and Individual Differences*, 103, 102274. <https://doi.org/10.1016/j.lindif.2023.102274>
5. Lo, C. K. (2023). What is the impact of ChatGPT on education? A rapid review of the literature. *Education Sciences*, 13(4), 410. <https://doi.org/10.3390/educsci13040410>
6. Miao, F., & Cukurova, M. (2024). AI competency framework for teachers. UNESCO.
7. Miao, F., & Holmes, W. (2023). Guidance for generative AI in education and research. UNESCO.
8. Tejada, J., Murillo, A., & Mateu-Luján, B. (2024). 'It blew my mind': Creating spaces for integrating creativity, electro-acoustic music and digital competencies for student teachers. *British Journal of Music Education*, 41(2), 182–194. <https://doi.org/10.1017/S0265051723000384>

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №8(2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.